

---

## "Yangi O'zbekiston armiyasi-mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir"

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchilida 2023-yil 22 - dekabr kuni Respublika Ma'navit va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan topshiriqlari asosida "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun" shiori ostida o'tkazilayotgan "Mahallada duv-duv gap" ma'naviy-ma'rifiy tadbiri Rishton tumanining eng chekka hududlari "Oq oltin" MFY va "Yangi yo'l" MFY hamkorligida 19-maktabda katta tayyorgarlik bilan tashkil etildi.Tadbirda Rishton tumani hokimligi xodimlari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi rahbari Diloromxon Dodoboyeva hoji otaxon va onaxonlar,mahalla faollari, yoshlar vakillar ishtirok etdilar. So'zga chiqqanlar bugungi tinch va farovon hayotimizga shukronalar aytdilar. Ona Vatanimizning ravnaqi uchun tilak bildirdilar. 19-maktab o'quvchilari tomonidan tayyorlangan adabiy-badiiy kompazotsiya yig'ilganlarga manzur bo'ldi. Tadbir " Vatan himoyachilari kuni"ga bag'shlangan 'Shunqorlar" musobaqasiga ulanib ketdi.

"Yangi O'zbekiston armiyasi-mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir" shiori ostida targ'ibod tadbirlari davom etmoqda.

2024-01-15 15:54:12